

**O‘zbekiston**  
**Metama‘lumot**  
**Ish haqi / mehnat daromadlari**

**0. Asoslar**

**0.1 Qonuniy muhit**

**0.1.1 Statistik ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik**

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi 2002 yil 12 dekabrda tasdiqlangan va 2012 yilda o‘rgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan “Davlat statistikasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq mustaqil ravishda o‘z faoliyatini yuritadi, ushbu qonun bilan davlat statistikasini tashkil etish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi, davlat statistikasi organlarining vakolatlarini belgilaydi hamda yagona statistika axboroti tizimi yuritilishi uchun normativ asos yaratadi.

2017 yil sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining vakolatlari, funksiyalari va tarkibini aniqlab beadigan yangi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida Nizom”i tasdiqlandi, ushbu nizom Davlat statistika qo‘mitasi Milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas‘ul va ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, analiz qilish va tarqatish bo‘yicha asosiy organ bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistik uslubiyat bilan ta‘minlash vazifalarini bajaradi.

Davlat statistika qo‘mitasi, statistika ishlarini olib boruvchi boshqa davlat statistika organlari singari davlat statistika hisobotlarini, ma‘muriy hisobotlarni va davlat statistika kuzatuvlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma‘lumotlarni, shuningdek hisobotlaridagi tushuntirishlarni o‘z vakolatlari doirasida boshqa organlardan ta‘lab qilib olish huquqiga ega.

2017 yil 12 sentabrdagi 5054 sonli Prezident topshirig‘iga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma‘lumotlar XVJning kengaytirilgan umumiy ma‘lumotlar tarqatish tizimi (k-UMTT) doirasiga to‘g‘ri keladigan va muvofiqlashgan bo‘lishi kerak.

**0.1.2 Ma‘lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o‘rtasida ma‘lumotlar almashinuvi va muvofiqlartirish**

### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 9-moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari Davlat statistikasi ishlari dasturini bajarishda davlat statistikasi organlariga ko‘maklashishi shart bo‘lgan boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar bilan statistika ishlarini hamkorlikda bajaradi. Davlat statistikasi organlari o‘zlarining vakolat doirasiga kiruvchi ayrim ishlarning boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar tomonidan bajarilishiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo‘l qo‘yadi. Boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq davlat statistika kuzatuvlarini, shuningdek davlat statistikasi vakolatli organi bilan kelishilgan shakllarda idoraviy statistika kuzatuvlarini o‘tkazadi. Idoraviy statistika kuzatuvlarining ma‘lumotlari davlat statistikasi vakolatli organiga uning so‘roviga binoan taqdim etiladi.

Bundan tashqari, statistika kengashi davlat statistikasi vakolatli organi huzuridagi davlat statistikasining rivojlantirilishi, faoliyat ko‘rsatishi va muvofiqlashtirilishi muammolari bo‘yicha kollegial maslahat organi hisoblanadi. Statistika kengashi davlat statistikasining ayrim masalalarini ko‘rib chiqish uchun ekspert komissiyalari tayinlashi mumkin. Statistika kengashi va ekspert komissiyalarining yig‘ilishlariga ekspertlar taklif etilishi, yig‘ilishlarda vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar vakillarining davlat statistikasi masalalari bo‘yicha axborotlari eshutilishi mumkin. Statistika kengashining tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

#### 0.1.3 Alohida muxbirlarning ma‘lumotlari maxfiyligi

### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari yakka tartibdagi statistika ma‘lumotlarining maxfiyligini, davlat sirlari va yuridik shaxslarning tijorat sirlariga rioya etilishini, jismoniy shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning egasi mavhumlashtirilishini ta‘minlashga majburdirlar. Bundan tashqari 2017 yil sentabrda “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida Nizom”ga asosan, (13-band, §15) Davlat statistika qo‘mitasi maxfiylik masalalarini hal qilish bo‘yicha xavfsizlik choralarini ko‘radi, shu jumladan bank sirlarini ham (13-band, §11). Nihoyat, “Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan davlat organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining davlat statistika sohasidagi faoliyatiga aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat statistika qo‘mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o‘zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma‘lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma‘lumot beriladi. Davlat statistika qo‘mitasining har bir xodimi uni bunday ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o‘z ichiga olgan shartnomaga qo‘l qo‘yishi shart.

#### 0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi sifat menejmenti va metama‘lumotlar boshqaruvini

ta'minlaydigan statistika biznes-jarayonlarini ifodalovchi BMT ning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining (UNECE) Statistika biznes jarayonlar umumiy modelini yuritadi.

Respondentlarga ma'lumot yetkazib berish maqsadida Davlat statistika organlari o'z vakolatlari doirasida moliya, bojxona, soliq organlari, banklar va boshqa idora va xizmatlar, yuridik shaxslar va ularning vakolatxonalari filiallaridan, jismoniy shaxslardan, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan Davlat statistika kuzatuvlarini yuritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni so'rashga va olishga, shuningdek, statistik maqsadlarda foydalaniladigan hisobotlarga tushuntirishlar olishga huquqiga ega.

Bundan tashqari, davlat statistikasi korxonalar va muassasalar statistik ma'lumotlarining ishonchliligini tekshiradi, olingan statistik ma'lumotlarni to'liqligi ob'ektivligini ekspertizadan o'tkazadi va buzilganligi aniqlangan hollarda ularni to'g'rilash uchun zarur ko'rsatmalar beradi va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritadi.

## 0.2 Resurslar

### 0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnik, elektron hisoblash va moliyaviy resurslar (tavsiya etiladigan kategoriya)

Respublika miqyosida ish haqi bo'yicha ma'lumotlarni shakllantirishni Demografiya va mehnat statistikasi Boshqarmasi, Mehnat resurslari balansi, bandlik va mehnatga haq to'lash ko'rsatkichlarini shakllantirish va taxlil etish bo'limi xodimlari amalga oshiradi, shuningdek viloyat darajasidagi ushbu ko'rsatkichlarni viloyat statistika Boshqarmasi demografiya va mehnat statistikasi bo'limlari xodimlari shakllantiradi.

Mehnat resurslari balansi, bandlik va mehnatga haq to'lash ko'rsatkichlarini shakllantirish va taxlil etish bo'limida 7 ta xodim, viloyat boshqarmalari demografiya va mehnat bo'limlarida o'rtacha 5 tadan xodim ishlaydi.

Umuman ish haqi bo'yicha statistik ma'lumotlarni shakllantirish bo'yicha qo'yilgan topshiriqlarni bajarish uchun xodimlar soni yetarli, xodimlar saqlash va ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha qo'yilgan topshiriqlarni bajarishni ta'minlaydi.

Hamma xodimlar oliy ma'lumotga ega. Davlat statistika qo'mitasining kadrlarni tayyorlash va statistik kuzatuvlar markazida doimiy 2 yilda 1 marta xodimlarni o'qitish ishdagi ko'nikmalarini qo'llab-quvvatlashga va rivojlantirishga yordam beradi.

Har bir ish o'rni lokal tarmoqqa ulangan, shaxsiy kompyuter bilan ta'minlangan. Programma ta'minoti davriy yangilanadi, qo'yilgan va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan masalaga javob beradi. Beriladigan moliyaviy manba davlat statistika ishlari Dasturida ko'rsatilgan mehnat statistikasi qismi bo'yicha ishlarni bajarish uchun yetarli.

## 1. Yaxlitlik

### 1.1 Kasbiy mahorat

#### 1.1.1 Statistikaning xolisligi

##### O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari aniqlik, xolislik va beg'arazlikdir. Bundan tashqari, “O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risidagi Nizomi”da (13-modda, §6) Davlat statistika qo'mitasining prinsiplari beg'arazlikni ta'minlashi belgilanga.

### 1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

#### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 14-moddasiga muvofiq statistika ma‘lumotlaridan davlat manfaatlarini ko‘zlab va ilmiy maqsadlarda, jamoatchilikni xabardor etish, bunday ma‘lumotlardan foydalanuvchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash uchun foydalaniladi. Davlat statistikasi organlari yuridik shaxslardan, ularning vakolatxonalari va filiallaridan, jismoniy shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan olgan birlamchi statistika ma‘lumotlari faqat jamlanma statistika ko‘rsatkichlarini tayyorlashda statistika maqsadlarida ishlatiladi hamda jamlanma holatda va egasi mavhumlashtirilgan tarzda e‘lon qilinadi. Tarkibida davlat siri va tijorat sirlari bo‘lgan statistika ma‘lumotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

### 1.1.3 Statistik ma‘lumotlarni noto‘g‘ri talqin qilish yoki undan noto‘g‘ri foydalanish bo‘yicha sharh

#### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi statistik ma‘lumotlarni noto‘g‘ri talqin qilish va statistik ma‘lumotlardan noto‘g‘ri foydalanilganda o‘z izohini berishi mumkin.

## 1.2 Shaffoflik

### 1.2.1 Statistik ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish nizomi va tartibini oshkor qilish

#### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 4-moddasiga binoan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari qulaylik, ochiq-oydinlik va oshkoralikdir. Statistik ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish bo‘yicha shartlar O‘zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun va qarorlarda keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. Shunday qilib, “Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonun (2002 yil) va Qo‘mitaning 368-sonli qarori veb-saytga ([www.stat.uz](http://www.stat.uz)) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida ham chop etiladi va normativ-huquqiy xujjatlar bazasiga (norma), shuningdek Adliya vazirligining [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz) manzilida joylashgan ma‘lumotlar bazasida ham mavjud.

### 1.2.2 Hukumatning statistik ma‘lumotlarga e‘lon qilinishidan oldin ko‘rishning ichki imkoniyati

#### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Hukumat Davlat statistika qo‘mitasining ma‘lumotlarini e‘lon qilinish vaqtidan oldin ko‘rish imkoniyatiga ega emas. Statistik ma‘lumotlarni tarqatishda Davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi (“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 5-moddasi). Faqat qo‘mita Raisi statistik ma‘lumotlar e‘lon qilinishidan oldin ularni ko‘ra oladi.

### 1.2.3 Statistik ma‘lumotlarni belgilash

#### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Jamiyatga e‘lon qilinayotgan ma‘lumotlar ma‘lumot ishlab chiqaruvchi agentlik

tomonidan aniq belgilanadi (logotip va izohlar).

#### 1.2.4 Uslubiyatlar, dastlabki ma'lumotlar va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida avvaldan xabar berish.

##### O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga jiddiy o'zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo'mitasi jamaotchilikni oldindan ogohlantiradi. Davlat statistika qo'mitasi o'z veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi.

### 1.3. Axloq me'yorlari

#### 1.3.1 Xodimlarning axloqi bo'yicha ko'rmatma

##### O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimiga tayinlanayotganda majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasi xodimi uni bunday ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

## 2. Metodologiya

### 2.1 Konsepsiya va ta'riflar

#### 2.1.1 Konsepsiya va ta'riflar (talab etiladigan kategoriya)

Bandlik bo'yicha konsepsiya va ta'riflar Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) standartiga asoslangan.

Metodologiya quyidagi xujjatlarga asoslangan:

- Xalqaro mehnat tashkilotining bosh konferensiyasida qabul qilingan Bitim 1985 yil mehnat statistikasi to'g'risida (№160) va Tavsiyalar 1985 yil mehnat statistikasi to'g'risida (№170).
- Mehnat statistiklarining 11-Xalqaro Konferensiyasida qabul qilingan "Ishchi kuchi xarajatlariga bag'ishlangan Rezolyusiyasi" (1966 yil, oktabr);
- Mehnat statistiklarining 12-Xalqaro Konferensiyasida qabul qilingan "Ish haqi statistikasining integratsiyalashgan tizimiga bag'ishlangan Rezolyusiyasi" (1973 yil, oktabr);
- "Iqtisodiyotda ish haqini baholash bo'yicha uslubiy Nizomni tasdiqlash to'g'risida"

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi 4 may 2018 y. 13-sonli Qarori.

Bundan tashqari, mehnatga haq to'lash va o'rtacha ish haqini hisoblash MHT-93 prinsiplariga asoslangan.

**Nominal hisoblangan ish haqi** - ish beruvchining ma'lum bir vaqt (soat, oy, yil) davomida ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar bajarilgani yoki xizmat ko'rsatilganligi) uchun hisoblangan amaldagi qonunlarga muvofiq soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga olgan naqd pul shaklida jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar nachisленные доходы физическix lis v vide oplaty truda v denejnoy forme, v klyuchayushie v sebya nalogi i drugie vylaty v sootvetstvii s deystvuyushimi zakonodatelnymi aktami, rasschitannye rabotodatelem za proizvedennuyu produkciyu (vypolnennuyu rabotu ili okazannuyu uslugu) rabotnikom v opredelennyy period vremeni (chas, mesyas, god).

Nominal hisoblangan ish haqi daromad solig'i va qonunda ko'rsatilgan boshqa ushlanmalar olib tashlanmagan holatdagi ko'rinishda bo'ladi, ya'ni brutto.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi yuridik shaxslarda ishlovchi xodimlarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromatlarni (daromad solig'i va majburiy sug'urta badallarini qo'shgan holda) yuridik shaxslarda ishlovchi xodimlar soniga va oylar soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

*Real ish haqi* – joriy davrda ish haqi uchun sotib olinishi mumkin bo‘lgan to‘lovlar va xizmatlar hajmini bazaviy davr bahosiga qarab belgilaydi.

Real ish haqi nominal hisoblangan ish haqining iste‘mol narxlari indeksiga nisbatan hisoblanadi.

“Ish haqi” tushunchasi o‘z ichiga barcha ko‘rinishdagi (shuningdek, turli mukofotlar, qo‘shimcha haq, ustamalar va ijtimoiy imtiyozlar), pul shaklida hisoblangan (moliyalashtirish mabasidan qat‘iy nazar), shuningdek qonun hujjatlaridan kelib chiqqan holda ishlanmagan vaqt uchun xodimlarga hisoblangan pul to‘lovlari (yillik ta‘til, bayramlar uchun va boshqalar)ni oladi.

Mehnatga haq to‘lash ko‘rinishidagi daromadlar, ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi mehnat shartnomasi asosida mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxsga hisoblangan va to‘langan to‘lovlar.

Rag‘batlantirish ko‘rinishidagi to‘lovlar, yillik ish yakunlari bo‘yicha mukofotlar, yuridik shaxsning mukofotlash to‘g‘risidagi qoidasida nazarda tutilgan rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va maoshlarga ustamalar, ta‘tilga qo‘shimcha haqlar, ko‘p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to‘lovlar, ratsionalizatorlik taklifi uchun to‘lov, mehnat natijalari bilan bog‘liq bo‘lmagan bir yo‘la beriladigan mukofotlar.

Kompensatsiya to‘lovlari (kompensatsiya)

Ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash

## 2.2 Statistika qamrov

### 2.2.1 Statistika qamrov (talab etiladigan kategoriya)

#### 2.2.1.1 Ma‘lumotlarning statistika qamrovi

Ma‘lumotlarning geografik qamrovi o‘z ichiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahrini oladi.

Tarmoqlar qamrovi: Barcha iqtisodiy faoliyat turlari iqtisodiy faoliyat turlari klassifikatoriga muvofiq IFTK 2 (NACE 2).

Kasbiy qamrov: Barcha kasblar.

Aholi qamrovi: Korxonalar va tashkilotlarga yoshidan qat‘iy nazar bir va undan ko‘p kunga doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy qabul qilingan xodimlar.

Institutsional qamrov: Ish haqi bo‘yicha oylik va choraklik ma‘lumotlar kichik tadbirkorlik sub‘ektlaridan tashqari barcha tashkilotlarni qamrab oladi. Ish haqi bo‘yicha yillik ma‘lumotlar barcha tashkilotlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Mavzu bo‘yicha qamrov: Ma‘lumotlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- choraklik ma‘lumotlar: iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha guruhlanadi;

- yillik ma‘lumotlar: iqtisodiy faoliyat turlari, shahar va qishloq joylari bo‘yicha guruhlanadi.

#### 2.2.1.2 Statistika qamrovdan istisnolar

Oylik ish haqi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar kichik tadbirkorlik sub‘ektlaridan tashqari barcha tashkilotlarni qamrab oladi.

#### 2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Ro‘yxatga olinmagan faoliyat turlari kuzatilmaydi.

## 2.3 Klassifikatsiya/sectorlar bo‘yicha bo‘lish

### 2.3.1 Klassifikatsiya/sectorlar bo‘yicha bo‘lish (ma‘lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

*Tasniflash:* 2016 yilgacha milliy klassifikator bo'yicha tasniflash olib borilgan, 2017 yil 1 yanvardan Umumdavlat iqtisodiy faoliya turlari klassifikatoriga muvofiq IFTK 2 (NACE 2).  
Shuningdek ish haqi ma'lumotlari Respublika hududlari bo'yicha jamlanadi

## 2.4 Hisobga olish asosi

### 2.4.1 Baholash (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

O'rtacha oylik ish haqi milliy valyuta birligi-o'zbek so'mida hisoblanadi.  
Xorijiy valyutada hisoblangan ish haqi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining xorijiy valyutaning so'mga nisbatan kurslariga ko'ra qayta hisoblanadi.

### 2.4.2 Hisobga olish asosi (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

O'rtacha ish haqi bo'yicha ma'lumotlar oylik va yil boshidan davrlarga hisoblanadi.

### 2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartiblari (tavsiya etiladigan kategoriya)

XMT tavsiyalariga ko'ra o'rtacha ish haqi darajasi (o'rtacha oylik va o'rtacha yillik) jami hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarni xodimlar soniga va oylar soniga bo'lish bilan aniqlanadi:

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi jami xodimlarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarni (tashqi o'rindoshlar va fuqarolik-huquqiy tarzda tuzilgan shartnomalar asosida ishlovchi xodimlarni qo'shgan holda) o'rtacha ish haqi hisoblash uchun qabul qilingan xodimlar soniga va tegishli hisobot davri oylari soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi indeksi bitta xodimga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqining o'tgan davrlarga nisbatan o'zgarishi aks ettiriladi.

Real ish haqi indeksi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqini shu davr uchun tovar va xizmatlar uchun iste'mol narxlar indeksiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

## 3. Aniqlilik va ishonchlik

### 3.1 Boshlang'ich ma'lumotlar

#### 3.1.1 Boshlang'ich ma'lumotlarni yig'ish dasturlari (talab etiladigan kategoriya)

Ma'lumot manbalari: Dastlabki ma'lumot oylik va yillik davriylik bilan mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan olinadi.  
Ma'lumotlarni yig'ish: Dastlabki ma'lumotlarning to'plami korporativ statistikaga asoslangan milliy sharoitning xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'lumotlar yig'ishning keng qamrovli dasturlari dorasida amalga oshiriladi. Mehnat ko'rsatkichlari bo'lgan xodimlar soni va mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar bo'yicha dastlabki ma'lumotlarni yig'ish davlat statistika kuzatuvini asosida amalga oshiriladi.

Kichik biznes sub'ektlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, fermer xo'jaliklari mehnat ko'rsatkichlari mavjud yillik statistika hisobotlarini taqdim etadilar.

Yuqoridagilarga kirmaydigan yuridik shaxslar choraklik statistika hisobotini taqdim etadilar.

Yillik yig'ma ma'lumotlar 25 mayda tayyor bo'ladi.

#### 3.1.2 Ta'riflar, statistik qamrov, klassifikatsiyalar, baholashlar va boshlang'ich ma'lumotlarni hisobga olish davri (tavsiya etiladigan kategoriya)

Statistik qamrov, klassifikatsiya, baholash va boshlang'ich ma'lumotlarni hisobga olish davri talab qilinadigan ta'riflar parametriga yetarli darajada yaqin keladi.

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga ko'ra o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi o'z ichiga xodimlarga hisoblangan pul ko'rinishidagi quyidagi to'lovlarni oladi:

ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga (kontraktiga) muvofiq ishlarni bajarayotgan jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to'lanadigan barcha to'lovlar;

mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar rag'batlantirish ko'rinishidagi to'lovlar, yillik ish yakunlari bo'yicha mukofotlar, yuridik shaxsning mukofotlash to'g'risidagi qoidasida nazarda tutilgan rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va maoshlarga ustamalar, ta'tilga qo'shimcha haqlar, ko'p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to'lovlar, ratsionalizatorlik taklifi uchun to'lov, mehnat natijalari bilan bog'liq bo'lmagan bir yo'la beriladigan mukofotlar;

kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiya);  
ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash.

### 3.1.3 Boshlang'ich ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi (tavsiya etiladigan kategoriya)

Ma'lumotlarni yig'ish dasturi ularni o'z vaqtida olishni ta'minlaydi.

Davlat statistika ishlari Dasturida belgilangan muddatda davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlarni har chorak yakuni bo'yicha jami respublika bo'yicha, viloyatlar kesimida va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqadi.

O'rtacha ish haqi ma'lumotlari choraklik va yillik statistika hisobotlariga asosan shakllantiriladi.

Choraklik: o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar hisobot davridan keyingi 55 kun ichida shakllantiriladi.

Yillik: yillik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar keyingi yilning 25 mayiga shakllantiriladi.

## 3.2 Boshlang'ich ma'lumotlarni baholash

### 3.2.1 Boshlang'ich ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Chiquvchi ma'lumotlarni baholash choraklik davriylikda har bir iqtisodiy faoliyat turi va iqtisodiyot sektorlari bo'yicha amalga oshiriladi. Baholash natijalari statistika jarayonlarida kuzatiladi va hisobga olinadi.

Bundan tashqari, tashkilotlardan olinayotgan ma'lumotlar mantiqiy va arifmetik nazorat qilish predmeti bo'lib hisoblanadi.

## 3.3 Statistik usullar

### 3.3.1 Boshlang'ich ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador kategoriya sifatida talab etiladigan kategoriya)

Statistik jarayonlardagi foydalanilayotgan usullar ma'lumotlarni qayta ishlashdagi xatoni kamaytirishga imkon beradi.

Respublika va hududlar va boshqa taksonomik birliklar bo'yicha, iqtisodiy faoliyat turi, iqtisodiyot sektorlari va xususiy sektorni qo'shgan holda nominal hisoblangan ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

-oylik;

-hisobot davriga o'rtacha oylik.

*Jami hududlar (respublika, region, tuman, shahar) bo'yicha oylik* ish haqini hisoblash uchun jami xodimlarga (tashqi o'rindoshlar va fuqarolik-huquqiy tarzda tuzilgan shartnomalar asosida ishlovchi xodimlarni qo'shgan holda) pul shaklida hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar olinadi;

*Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha oylik* ish haqini aniqlash uchun ichki o'rindoshlarni qo'shgan



holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar olinadi.

*Jami hududlar (respublika, region, tuman, shahar) bo'yicha davr uchun* ish haqini hisoblash uchun jami xodimlarga (tashqi o'rindoshlar va fuqarolik-huquqiy tarzda tuzilgan shartnomalar asosida ishlovchi xodimlarni qo'shgan holda) pul shaklida hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar olinadi;

*Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha davr uchun* ish haqini aniqlash uchun ichki o'rindoshlarni qo'shgan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar olinadi. O'rtacha oylik ish haqini hisoblash uchun olingan ma'lumotlarni tegishli davr oylari soniga bo'linadi.

### 3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

## 3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

### 3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Ish haqini choraklik solishtirish choraklik va yillik mehnat hisobotidan so'ng amalga oshiriladi. Hisobot ma'lumotlarining to'g'riligi o'tgan davr ma'lumotlari bilan solishtirish yo'li bilan aniqlanadi.

### 3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Yakuniy va oraliq statistik ma'lumotlar muntazam ravishda baholanadi va solishtirib boriladi. Farq mavjud bo'lgan taqdirda ularni bartaraf etish choralari ko'riladi.

### 3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi farqlarni va boshqa muammolarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

## 3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

### 3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish (tavsiya etiladigan kategoriya)

Nashr qilingan barcha mehnatga haq to'lash bo'yicha ma'lumotlar yakuniy bo'lib, qayta ko'rib chiqilmaydi.

## 4. Amaliy yaroqlilik

### 4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

#### 4.1.1 Davriylik (talab etiladigan kategoriya)

Ish haqi bo'yicha ma'lumotlar har choraklik va yillik shakllantiriladi.

#### 4.1.2 O'z vaqtidaligi (talab etiladigan kategoriya)

Davlat statistika ishlari Dasturiga muvofiq o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha yakuniy ma'lumotlar keyingi yilning 25 may oyiga tayyorlanadi.

## 4.2 Qiyosiylik

### 4.2.1 Ichki qiyosiylik (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Statistik ma'lumotlar davriylik, ichki qiyosiylik asosida tavsiflanadi.

### 4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik (tavsiya etiladigan kategoriya)

Taqqoslama ma'lumotlar mavjud, 1995 yildan 2016 yilgacha ma'lumotlar milliy klassifikator tarkibida, 2016 yildan so'ng OKED-red.2 tarkibida hisoblab chiqilgan (NACE Rev.2).

### 4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik (tavsiya etiladigan kategoriya)

O'rtacha ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar statistik hisobot asosida tuziladi, boshqa manbalar qo'llanilmaydi.

## 4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

### 4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali (talab etiladigan kategoriya)

Nashr etiladigan ma'lumotlar yakuniy hisoblanadi.

### 4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash (talab etiladigan kategoriya)

Nashr etiladigan ma'lumotlar yakuniy hisoblanadi.

### 4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni tahlil qilish va o'rganish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish (tavsiya etiladigan kategoriya)

Barcha nashr etiladigan ma'lumotlar yakuniy, ish haqi bo'yicha ma'lumotlar qayta ko'rib chiqilmaydi.

## 5. Qulayligi

### 5.1 Ma'lumotlar

#### 5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish shakli (talab etiladigan kategoriya)

Ma'lumotlar jami respublika bo'yicha va viloyatlar kesimida, hamda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha nashr etiladi.

#### 5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari (talab etiladigan kategoriya)

##### 5.1.2.1 Bosma shaklida – Yangi nashrlar

Statistik ma'lumotlar bosma shaklda O'zbekiston Respublika Davlat statistika qo'mitasining «O'zbekiston raqamlarda» nashri, hamda «Mehnat bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar» byulleteni orqali tarqatiladi.

Bundan tashqari, foydalanuvchilarning talabiga binoan statistik ma'lumotlar taqdim etiladi.

#### 5.1.2.2 Bosma shaklida – Haftalik byulletenlar

#### 5.1.2.3 Bosma shaklida – Oylik byulletenlar

#### 5.1.2.4 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

#### 5.1.2.5 Bosma shaklida – Boshqalar

Foydalanuvchilarning so'rovi bo'yicha jadvallar

#### 5.1.2.6 Elektron shaklda – Onlayn byulletenlar yoki ma'lumotlar

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy saytining quyidagi manzilida: [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

#### 5.1.2.7 Elektron shaklda – Boshqalar

#### 5.1.5 So'rov bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish (tavsiya etiladigan kategoriya)

Foydalanuvchilarning talabiga binoan ma'lumotlar belgilangan tartibda va shaklda taqdim etiladi

### 5.2 Metama'lumotlar

5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, klassifikatsiyalar, hisobga olish asosi, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar to'g'risidagi hujjatlarni tarqatish (talab etiladigan kategoriya)

## 9. Rejalar

### 9.1 Oxirgi

#### 9.1.1 Takomillashtirish rejaları – Oxirgi takomillashtirishlar

Ish haqi bo'yicha ishonchli va sifatli ma'lumotlarni olish uchun choraklik mehnat hisoboti takomillashtirildi.

## 9.2 Umumiy

### 9.2.1 Takomillashtirish rejalari – Qisqa muddatlilari

### 9.2.2 Takomillashtirish rejalari – O'rta muddatlilari

Kasblar kesimida ish haqi ma'lumotlarini Davlat statistika hisobotlarida aks ettirish. Ish haqi xisobi bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqish.

## 9.3 Moliyaviy

### 9.3.1 Takomillashtirish rejalari – Texnik yordam/moliyalashtirishga ehtiyojlar – Qisqa muddatli

Moliyalashtirish Davlat statistika ishlari dasturi doirasida amalga oshirilgan.

### 9.3.2 Takomillashtirish rejalari - Texnik yordam/moliyalashtirishga ehtiyojlar– O'rta muddatli

O'rta muddatli rejalarni amalga oshirish uchun xalqaro tavsiyalarini va eng yaxshi amaliyotlarni o'rganishda texnik yordam zarur.

## Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

| Aloqa bog'lash uchun shaxs <u>1</u>            |   |              |         |
|--|---|--------------|---------|
| <i>F.I.O.:</i>                                 | Berdiqulo Qobil   | G'ulomovich  |         |
|  | v   |              |         |
| <i>Lavozim:</i>                                | Boshqarma boshlig'i   |              |         |
| <i>Bo'linma:</i>                               | Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi  |              |         |
| <i>Bo'lim:</i>                                 |   |              |         |
| <i>Departament:</i>                            |   |              |         |
| <i>Idora:</i>                                  | Davlat statistika qo'mitasi   |              |         |
| <i>Manzil (1 satr):</i>                        | Mustaqillik shox ko'chasi, 63-uy  |              |         |
| <i>Manzil (2 satr):</i>                        |   |              |         |
| <i>Shahar/region:</i>                          | Toshkent  |              |         |
| <i>Mamlakat:</i>                               | O'zbekiston   |              |         |
| <i>Pochta indeksi:</i>                         | 100192  |              |         |
| <i>Telefon: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam</i> | 998   | 71           | 2308065 |
| <i>Faks: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam</i>    | 998   | 71           | 2308153 |
| <i>Elektron manzil:</i>                        | Q.Berdikulov@stat.uz  |              |         |
| Aloqa bog'lash uchun shaxs <u>2</u>            |   |              |         |
| <i>F.I.O.:</i>                                 | Yuldoshe Zoyir  | Toshkanovich |         |
|  | v   |              |         |
| <i>Lavozim:</i>                                | Boshqarma boshlig'i o'rinbosari, bo'lim boshlig'i   |              |         |
| <i>Bo'linma:</i>                               |   |              |         |
| <i>Bo'lim:</i>                                 | Mehnat resurslari balansi, bandlik va mehnatga haq to'lash ko'rsatkichlarini shakllantirish va tahlil etish bo'limi |              |         |
| <i>Departament:</i>                            |   |              |         |
| <i>Idora:</i>                                  | Davlat statistika qo'mitasi   |              |         |
| <i>Manzil (1 satr):</i>                        | Mustaqillik shox ko'chasi, 63-uy  |              |         |
| <i>Manzil (2 satr):</i>                        |   |              |         |
| <i>Shahar/region:</i>                          | Toshkent  |              |         |
| <i>Mamlakat:</i>                               | O'zbekiston   |              |         |
| <i>Pochta indeksi:</i>                         | 100192  |              |         |
| <i>Telefon: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam</i> | 998   | 71           | 2308126 |
| <i>Faks: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam</i>    | 998   | 71           | 2308153 |
| <i>Elektron manzil:</i>                        | Z.Yuldoshev@stat.uz   |              |         |